



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT KENGASHINING QARORI

2024-yil 22-noyabr

II-2-010-14-220-K/24

Yangihayot

Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining doimiy komissiyalarini tuzish va shaxsiy tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 19- va 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 2024-yil 31-oktabrdagi KQ-846-IV-son Qaroriga asosan xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 2024-yil 31-oktabrdagi KQ-846-IV-son Qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashida quyidagi beshta doimiy komissiyalar tuzilsin:

1) Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha;

2) Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha;

3) Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha;

4) Qurilish, kommunal, suv xo'jaligi, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo'yicha;

5) Reglament va deputatlik odob-axloqi masalalari bo'yicha.

3. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi doimiy komissiyalarining tarkibi 1-5-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining 2024-yil 8-noyabrdagi II-1-07-14-220-K/24-son qarori bilan tasdiqlangan xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining doimiy komissiyalari to'g'risidagi nizomga 6-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

5. Quyidagilar:

xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining "Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi doimiy komissiyalarini tuzish va shaxsiy tarkibini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 16-dekabrdagi 3/3-son;

xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining “Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining 2020-yil 16-dekabrdagi “Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi doimiy komissiyalarini tuzish va shaxsiy tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3/3-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2021-yil 30-noyabrdagi I-19-104-14-220-K/21-son;

xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining “Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining doimiy komissiyalarining 2022-yil uchun mo‘ljallangan ish rejalarini tasdiqlash hamda xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining doimiy komissiyalari tarkibiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida” 2022-yil 11-martdagi I-31-47-14-220-K/22-son qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi kotibiyati mudiri X.Dadabayev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



INOGAMOV XAYOT
ILYASOVICH

Xalq deputatlari Yangihayot
Kengashining
2024-yil 22-noyabrdagi
II-2-010-14-220-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Mahalliy budjet,
tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy
komissiyasi tarkibi**

Komissiya raisi		
Vafayev Sanjar Abdusharifovich		25 – Yangi Gulzor saylov okrugi deputati
Rais o'rinbosari		
Xudaykulov Ismoil Matiyevich		20-Do'stlik saylov okrugi deputati
Komissiya kotibi		
Muradova Gulnara Mirzaxmatovna		2-Yangi Choshtepa saylov okrugi deputati
A'zolar		
Annaqulov Kamol Xasanovich		13-Al-Farg'oniy saylov okrugi deputati
Akbarov Nariman Xasanovich		22-Fayzli saylov okrugi deputati

Xalq deputatlari Yangihayot
Kengashining
2024-yil 22-noyabrdagi
II-2-010-14-220-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Korrupsiyaga qarshi
kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi tarkibi**

Komissiya raisi		
Sindarov Komil Oydinovich		9-Xumo saylov okrugi deputati
Rais o'rinbosari		
Nishanbekova Umida Abdujabborovna		23-Binokor saylov okrugi deputati
Komissiya kotibi		
Aripova Umida Djangirovna		5-Yangi turmush saylov okrugi deputati
A'zolar		
Kuchkarova Hayotxon Aliyevna		14-Chorbog' saylov okrugi deputati
Erkaboyev Baxtiyor Ekramjonovich		17-Yorqinhayot saylov okrugi deputati

Xalq deputatlari Yangihayot
Kengashining
2024-yil 22-noyabrdagi
II-2-010-14-220-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar
siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi tarkibi**

Komissiya raisi	
Yuldasheva Iroda Salaxutdinovna	11-Olchazor saylov okrugi deputati
Rais o'rinbosari	
Qobiljonov Bekzodjon Xakimjon o'g'li	7-Oriyat saylov okrugi deputati
Komissiya kotibi	
Djumaniyazova Gulandam Sabirovna	10-Zarbdor saylov okrugi deputati
A'zolar	
Shevchenko Nataliya Grigoryevna	16-Viqor saylov okrugi deputati
Xudoyqulova Zulfizar Sayfiddin qizi	3-Yangi Darxon saylov okrugi deputati
Umarova Maftuna Sayitmurod qizi	21-Chortoq saylov okrugi deputati
Raxmatova Qo`zal Axmat qizi	19-Charog'on saylov okrugi deputati

Xalq deputatlari Yangihayot
Kengashining
2024-yil 22-noyabrdagi
II-2-010-14-220-K/24 -son qaroriga
4-ilova

**Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Qurilish, kommunal, suv
xo'jaligi, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo'yicha doimiy
komissiyasi tarkibi**

Komissiya raisi		
Xursandova Dilshoda Abdullayevna		6-Yangihayot saylov okrugi deputati
Komissiya kotibi		
Xakimov Ulug'bek Asatullayevich		18-Xushnud saylov okrugi deputati
Rais o'rinbosari		
Abdalimova Nargiza Isakbay qizi		15-Yo'ldosh saylov okrugi deputati
A'zolar		
Mirzoqulov Baxtiyor Tolibovich		8-Marhamat saylov okrugi deputati
Tillayev Xabibulla Qudratovich		4-Tashabbus saylov okrugi deputati

Xalq deputatlari Yangihayot
Kengashining
2024-yil 22-noyabrdagi
II-2-010-14-220-K/24 -son qaroriga
5-ilova

**Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Reglament va deputatlik
odob-axloqi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi tarkibi**

Komissiya raisi	
Kuchkarova Hayotxon Aliyevna	14-Chorbog' saylov okrugi deputati
Rais o'rinbosari	
Sindorov Komil Oydinovich	9-Xumo saylov okrugi deputati
Komissiya kotibi	
Muradova Gulnara Mirzaxmatovna	2-Yangi Choshtepa saylov okrugi deputati
A'zolar	
Nishanbekova Umida Abdujabborovna	23-Binokor saylov okrugi deputati
Xudaykulov Ismoil Matiyevich	20-Do'stlik saylov okrugi deputati

Xalq deputatlari Yangihayot
Kengashining
2024-yil 22-noyabrdagi
II-2-010-14-220-K/24 -son qaroriga
6-ilova

**Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining doimiy komissiyalari
to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining 2024-yil 8-noyabrdagi II-1-07-14-220-K/24-son qarori bilan tasdiqlangan xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining doimiy komissiyalari to'g'risidagi nizomga quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1) **10-bandning oltinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qurilish, kommunal, suv xo'jaligi, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo'yicha”;

2) **11-banddan o'n uchinchi-o'n yettinchi xatboshilari** chiqarib tashlansin;

3) **14-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qurilish, kommunal, suv xo'jaligi, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo'yicha doimiy komissiya:

qurilish, kommunal, sanoat, transport va aholiga xizmat ko'rsatishga doir dasturlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi hamda tayyorlashda qatnashadi;

hududning bosh rejasi va qurilish qoidalari loyihalarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

kommunal soha, transport va aloqa holatini o'rganadi, aholiga kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, jamoat transportini rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritadi;

savdo, umumiy ovqatlanishni tashkil etish, iste'mol bozori faoliyati bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

yoqilg'i-energetika ta'minoti, suv ta'minoti, oqova suvlarni chetga chiqarib yuborish va tozalash, maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish va utilizatsiya qilish masalalarini ko'rib chiqadi;

suv xo'jaligi, ekologiya masalalariga doir dasturlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi hamda tayyorlashda qatnashadi;

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, hududlarni obodonlashtirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish bo'yicha tashabbuslar kiritadi, ularni amalga oshirishda ishtirok etadi hamda samarali deputatlik nazoratini olib boradi;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlash, ularni kengaytirish hamda ulardagi biologik xilma-xillikni asrash bo'yicha dasturlar ijrosi samaradorligini nazorat qiladi;

yer osti suvlaridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganadi;

atmosfera havosini muhofaza qilish, uning ifloslanishi monitoring qilish, iqlim o'zgarishini oldini olish, uning salbiy oqibatlarini yumshatish, iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha dasturlar ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatadi;

chiqindilarni boshqarish, aholi punktlaridan chiqindilarni olib chiqib ketish qamrovi, chiqindilarni qayta ishlash, chiqindi poligonlarini rekultivatsiya qilish masalalarida o'rganishlar o'tkazadi;

daraxt va butalarning zararkunandalari hamda kasalliklariga qarshi kurashish tadbirlariga mahalliy budjetlar qo'shimcha manbalaridan mablag' ajratilishini nazorat qiladi;

"Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilishi yuzasidan qat'iy nazorat olib boradi;

dolzarb mahalliy ekologik muammolar va ularning oldini olish bo'yicha masalalarni doimiy ravishda Kengash sessiyalarida muhokama qilib borilishini tashkil etadi;

tabiiy obyektlarni davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilish, mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog'larini, botanika va dendrologiya bog'larini, buyurtma qo'riqxonalarini, tabiiy pitomniklarni, rekreatsiya zonalarini tashkil etish masalalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqadi;

yerdan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va qayta ishlov berish, tabiiy muhitni yaxshilash bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-xo'jalik sharoitlari masalalarini ko'rib chiqadi;

fermer xo'jaliklari, sanoat korxonalarini, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini o'rganadi va ularni mustahkamlash bo'yicha takliflar kiritadi;

tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

qishloq xo'jaligi hamda dehqon va fermer xo'jaliklarini samarali rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha takliflar kiritadi;

hududdagi suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilashda, shuningdek suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish va ularni muhofaza qilish sohasida qonuniylik hamda huquq-tartibotni ta'minlashda ishtirok etadi;

suv obyektlari holatini saqlash va yaxshilash, ularga zararli ta'sir ko'rsatilishining oldini olish va bartaraf etish, shuningdek avariya, toshqin, sel va tabiiy ofatlar natijasida vayron bo'lgan obyektlarni tiklash yuzasidan takliflar kiritadi;

zarur hollarda qonun hujjatlariga muvofiq ekologik ekspertiza o'tkazish bo'yicha takliflar kiritadi;

hokimlik bo'limlari va boshqarmalari, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar rahbarlarining komissiya vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha hisobotlarini (axborotlarini) eshitadi, tavsiyalar beradi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

vakolati doirasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga, davlat tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga ko'maklashadi;

o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi va ijrosini nazorat qiladi, tavsiyalar beradi va zarur hollarda Kengash qarorlari loyihalarini sessiyada ko'rib chiqish uchun kiritadi".